



Inklyuziv ta'lim dasturlarining natijalari va bugungi kunda erishilgan yutuqlar

Rahmonova Alomatxon Nizomiddinovna

Farg'ona viloyati Yozyovon tumani

29- maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim dasturi va bugungi kundagi ijtimoiy hayotda tutgan o'rni, vazifalari to'g'risidagi fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, siyosiy jarayon, natija, qonunchilik, inson qadri, integratsiya, vazifa.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng ko'plab yutuqlarga erishdi. Ayniqsa shu so'nggi 5-10-yillikda har qanday sohadagi yangilanishlar erishilayotgan yutuqlar buning yaqqol isbotidir. Ayniqsa nogironligi bor shaxslarga yaratilayotgan shart-sharoitlar va imkoniyatlar Yangilanayotgan O'zbekistonda inson qadri nechog'lik muhim ekanligini yana bir karra dalilidir. So'nggi yillarda nogironligi bo'lgan o'quvchilarni o'qitish va ularga kerakli ta'lim-tarbiyani berishda yangi atama paydo bo'ldi bu "Inklyuziv ta'lim". Xo'sh inklyuziv ta'lim nima? U bizga nima uchun kerak? Buning afzallik tomonlari nimalarda aks etadi? Degan savollarga ushbu maqolamizda javob olasiz.

Xo'sh inklyuziv ta'lim nima? Inklyuziv ta'lim — davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) o'smirlar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir. Inklyuziv ta'lim atamasi fransuzcha inklusif so'zidan olingan bo'lib o'z ichiga oladi degan ma'noni anglatadi.



Inklyuziv ta'lim" atamasi fransuzcha „inclusif“ soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, „oʻz ichiga oladi“ deb tarjima qilinadi va maxsus ehtiyojlari boʻlgan va shartli ravishda sogʻlom, yaʼni sogʻligi cheklanmagan odamlarning birgalikdagi taʼlimini anglatadi. Inklyuziv taʼlimning mazmun mohiyati toʻgʻrisidagi bilim va maʼlumotlar hali jamiyatda yetarli emas. „Inklyuziv“ va „integratsiyalashgan“ atamalari koʻpincha bir xil maʼnoda ishlatiladi. Shunga qaramasdan falsafada bu tushunchalar orasida farq bor^[1].

- Nogiron bolani oddiy sharoitga joylashtirish integratsiyaga qarab qoʻyilgan birinchi qadamdir.
- [Integratsiyalashgan](#) taʼlim bu-diqqat markazida bolaning aynan maktabga kelib ketish muammosi turgan, maxsus ehtiyojli bolaning maktabga qatnash jarayonidir.
- Integratsiyalashgan taʼlimda bolaga muammo sifatida qaraladi.

Inklyuziv taʼlimda esa alohida yordamga muhtoj bolalarni normal rivojlanishdagi bolalar bilan teng huquqlilik asosida taʼlim tarbiya olishlarini taʼminlaydi. Shuning uchun ham ahamiyatlidir. Inklyuziv taʼlim olish jarayoni bir-biriga oʻxshamaydigan, intellektual, jismoniy va aqliy xususiyatlarga ega boʻlgan odamlar maxsus bilimga muhtoj boʻlmagan tengdoshlari bilan birgalikda zarur bilim va [koʻnikmalarni](#) oladigan tarzda tashkil etiladi^[2]. Inklyuziy taʼlim-alohida ehtiyojli bolalar bilan sogʻlom bolalar uchun teng taʼlim olish imkoniyatini yaratadi. Oʻzbekiston taʼlim tizimiga inklyuziv taʼlimni kiritish masalalari bilan YUNISEF shugʻullanadi. Inklyuziv taʼlim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qatʼi nazar, ularning barchasiga sifatli taʼlim taqdim etish. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega boʻlishlari uchun oilada yashashlari va oʻz tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv taʼlim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan maktabda taʼlim olishi, oʻzlashtirishda qiynalayotgan boʻlsa,



o'qish va yozishga o'rganish uchun maxsus yordam olishi darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi.

[Oliy Majlis](#) ilk bor inklyuziv (uyg'unlashgan) ta'lim tushunchasi kiritilgan yangi tahrirdagi „Ta'lim to'g'risida“ gi qonun qabul qildi. Vazirlar Mahkamasi tomonidan 12.10.2021 yildagi «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi [638](#)-son qaror qabul qilindi.

2020–2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish [konsepsiyasida](#) alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha quyidagi vazifalar belgilandi:

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim oladigan ta'lim muassasalari binolariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish uchun inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, umumta'lim muassasalarini maxsus moslamalar (ko'tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), shuningdek tegishli kadrlar (maxsus pedagog, bolalarni ruhiy-pedagogik kuzatish bo'yicha mutaxassislar) bilan ta'minlash;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning moslashishi va integratsiyasi uchun maktab-internatlarni bosqichma-bosqich maxsus jihozlar bilan ta'minlash va boshqalar.

Qaror bilan Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. Unda quyidagilar belgilandi:

- inklyuziv ta'limning maqsadi va vazifalari;



- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun maktablarda inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar faoliyatini yo'lga qo'yish hamda o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish tartibi;
- o'quvchilarni inklyuziv ta'lim sinflariga va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish tartibi;
- inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarish chora-tadbirlari.

Shuningdek quyidagilar tasdiqlandi:

- Jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari to'g'risidagi nizom;
- Sanatoriy turidagi ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalari to'g'risidagi nizom;
- Jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalarga uyda yakka tartibda ta'lim berish tartibi to'g'risidagi nizom.

Bundan tashqari qaror bilan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida kasbga o'qitish kurslarini tashkil etish chora-tadbirlari belgilandi.

O'zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi mutaxassislar bilan birga qonun loyihasining inklyuziv ta'lim tamoyillariga muvofiqligi bo'yicha tahlil o'tkazdi. Qonunning 20-moddasi olish imkoniyatini yaratadi. Qonunning 20- moddadasida Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) va ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etiladi. Inklyuziv ta'limni tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi tomonidan belgilanadi. Inklyuziv ta'lim barcha bolalarga, ta'lim olish chog'ida o'ziga nisbatan har qanday tarzdagi kamsitishni istisno etuvchi jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarga nisbatan teng huquqli munosabatda bo'lish haqida so'z



boradi. O'zbekistondagi inklyuziv ta'lim tadqiqotchisi, [yangi Zelandiyadagi](#) Vaykato universiteti doktoranti Galina Nam, nogironligi bo'lgan bolalar uchun maxsus maktab-internatlarda yoki uyda emas, umumiy ta'lim muassasalarida ta'lim olish ustuvor bo'lishi kerakligini aytgan „Bu barcha davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining bir vaqtda yopilishini anglatmaydi, lekin bolalarning bu kabi maskanlarda va uyda o'qishiga faqatgina alohida holatlarda rozilik berishimiz zarur. Ta'lim muassasasini tanlash huquqi bolalarning o'zida va ularning ota-onasida qonuniy vakillarida qolishi kerak“, deya ta'kidlaydi Galina Nam. „Mutaxassislar“ o'z tavsiyalari bilan nogironligi bo'lgan bolalarning ta'lim olishning qay bir shaklida o'qishlari qaroriga ta'sir o'tkazadilar. O'zbekistonning ijtimoiy va madaniy yo'nalishdagi tajribasi shuni ko'rsatadiki, institutsional vakolatga ega bo'lgan psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalarning tavsiyalari institutsional kuchga ega bo'lib, maslahat emas, imperativ xususiyat bildiradi.

Yuqoridagi normativ-huquqiy hujjatlar va ularning ijrosidan ko'rinib turibdiki: Yangi O'zbekistonda inson qadri alohida ahamiyatga ega. U xoh sog'lom bo'lsin xoh nogiron bo'lsin, jamiyatda o'rnatilgan shart-sharoitlardan to'laqonli foydalanishga har kim haqlidir. Bu O'zbekiston qonunchiligida xam o'z aksini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. X. N. Muzaffarova, D. Tangirova [„Inklyuziv ta'lim“](#). library.samdukf.uz.
2. Musurmonova, O.. [Umumiy pedagogika](#). Yoshlar nashriyot uyi, 8-oktabr 2020-yil — 48-49 bet. [ISBN 978-9943-6679-0-7](#).
3. [„Ta'lim to'g'risida"gi yangi qonun va inklyuziya: qanday bo'lishi kerak?“](#) (o'zbekcha). gazeta.uz (9-iyun 2020, 16:00). Qaraldi: 10-noyabr 2022-yil